

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**TA’LIM TIZIMIDA MA’NAViy-MA’RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH
CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son **Farmoni** va “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son **qarorida** belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash hamda talaba va o‘quvchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy, madaniy saviyasini muntazam oshirib borish, ularning o‘qishdan bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetiga tegishli Toshkent shahar, Olmazor tumani, Talabalar shaharchasida joylashgan sobiq “Fudziyama” kafesi binosini tegishli hududi bilan birga (keyingi o‘rinlarda obyekt deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma‘naviyat va ma‘rifat” markaziga (keyingi o‘rinlarda Markaz deb ataladi) operativ boshqarish huquqi asosida bepul berish, shuningdek, mazkur obyektida Markaz tarkibidagi Talabalarning media ijtimoiy faoliyati va madaniy dam olish maskanini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilansin:

oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining talaba va o‘quvchilarini yurtimiz hamda dunyoda ro‘y berayotgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy, xususan, yoshlar hayotiga oid voqealar, yangiliklar va qiziqarli ma‘lumotlardan tezkor xabardor qilib, ularning vaqtini mazmunli o‘tkazishga mo‘ljallangan virtual axborot makoni (veb-sayt, portal, forum, messenjerlardagi kanallar va h.k.)ni yaratish va doimiy faoliyat olib borishini ta‘minlash;

talaba va o‘quvchilarda kitobxonlik hamda mutolaa madaniyatini shakllantirish orqali ularning ma‘naviy dunyosini yuksaltirishga qaratilgan ishlarni tashkil etib borish;

ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilari bo‘lgan talaba va o‘quvchilar hamda uyushmagan yoshlar o‘rtasida ularni vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy aksiyalar, tadbir va tanlovlar tashkil etish, ularda milliy kontentga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga qaratilgan bloggyerlar klubi faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

o‘qish yoki ish yuzasidan xorijda istiqomat qilayotgan o‘zbekistonlik yoshlar bilan muntazam virtual aloqani yo‘lga qo‘yish va ular bilan Internet jahon axborot tarmog‘i orqali ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlarini olib borish;

oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ta’lim bilan bog‘liq dolzarb muammolar va ularning yechimini tahlil qilish hamda yoritib borish maqsadida press-klub tashkil etish va uning doimiy faoliyatini ta‘minlash;

yoshlarning bepul madaniy dam olishlariga qaratilgan tadbirlar tashkil etish, teatr tomoshalari namoyish etib borilishini ta‘minlash, ularga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish xizmatini tashkil etish;

talaba va o‘quvchilar turizmini rivojlantirish, yosh avlodni mamlakatimizning tarixiy joylariga va buyuk ajdodlarimizning muqaddas ziyoratgohlariga doimiy tashriflarini uyushtirish;

oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida o‘tkaziladigan “Axborot va murabbiylik soatlari”ni metodik ta‘minlash hamda turli mavzularda multimedia mahsulotlarini yaratish va tarqatib borish;

professor-o‘qituvchilar, talaba va o‘quvchilar o‘rtasida huquqbuzarlik va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy targ‘ibot ishlarini muntazam yo‘lga qo‘yish;

oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim tizimida ommaviy, madaniy-ma‘rifiy va sport-sog‘lomlashtirish tadbirlari va turli musobaqalarni o‘tkazib borish.

3. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazining tuzilmasi **1-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi faoliyatini takomillashtirish hamda talaba va o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari dasturi **2-ilovaga** muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi xodimlarining mehnatiga haq to‘lash razryadlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziriga, zarur hollarda, Markaz tuzilmasiga tasdiqlangan xodimlarning umumiy cheklangan soni va mehnatiga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi berilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi faoliyatini takomillashtirish hamda talaba va o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari dasturida belgilangan tadbirlarni o‘z vaqtida va samarali amalga oshirish choralarini ko‘rsin;

oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalari talabalari va o‘quvchilari, shuningdek, mehnat va o‘quv jamoalari o‘rtasida sport turlari bo‘yicha musobaqalar va marafonlarni yuqori saviyada o‘tkazishga alohida e’tibor qaratsin;

talaba va o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga munosib hissa qo‘shayotgan professor-o‘qituvchilar hamda to‘garak rahbarlarining faoliyatini monitoring qilish natijalariga ko‘ra, ularni tegishli ta’lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan belgilangan tartibda moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib borishni muvofiqlashtirsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi:

bir oy muddatda Markazning yangi tahrirdagi ustavini ishlab chiqsin va belgilangan tartibda tasdiqlasin;

Markazni zarur ixtisoslikka ega bo‘lgan malakali kadrlar bilan ta’minlash, shuningdek, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlarini ko‘rsin;

Markazning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, talaba va o‘quvchilar hamda professor-o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan ommaviy-madaniy, sport-sog‘lomlashtirish va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘laridan foydalansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Markaz murojaatiga asosan uni zarur telekommunikatsiyalar, Internet jahon axborot tarmog‘iga kirish va telefon aloqasi bilan belgilangan tartibda ta’minlasin.

7. Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida “Ma’naviyat va ma’rifat” markazini tashkil etish to‘g‘risida” 2011-yil 12-yanvardagi 11-son **qaroriga** (O‘zbekiston Respublikasi QT, 2011-y., 1-2-son, 9-modda) **4-ilovaga** muvofiq o‘zgartirishlar kiritilsin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari A.A. Abduhakimov hamda oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.


O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 17-sentabr,
736-son

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son **qaroriga**
1-ILOVA

Ўзбекистон Республикаси Олий ва оʻрта maxsus taʼlim vazirligi huzuridagi “Maʼnaviyat va maʼrifat” markazining

TUZILMASI



Markaz xodimlarining cheklangan soni (texnik, xizmat koʻrsatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlar va professor-oʻqituvchilardan tashqari) — 40 nafar, shu jumladan boshqaruv xodimlari soni — 12 nafar.

* Texnik, xizmat koʻrsatuvchi va oʻquv-yordamchi xodimlar soni oliy taʼlim muassasalari uchun belgilangan normativlar asosida belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi faoliyatini takomillashtirish hamda talaba va o‘quvchilarning darsdan bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish

CHORA-TADBIRLARI DASTURI

Oldingi tahrirga qarang.

T/r	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Bajarish muddati	Mas’ullar
1.	Talabalar o‘rtasida “Yil talabasi” tanlovini joriy etish va uning har yili o‘tkazib borilishini yo‘lga qo‘yish.	<p>1. “Yil talabasi” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh tarkibini shakllantirish.</p> <p>2. “Yil talabasi” tanlovining nizomini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p> <p>3. Tanlovni oliy ta’lim muassasalari talabalar o‘rtasida o‘tkazib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil sentyabr</p> <p>har yili</p>	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, tasarrufida oliy ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar va idoralar, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
2.	Sog‘lom oila qurish, sog‘lom farzandni dunyoga keltirish, sog‘lom turmush tarzini yuritish (to‘g‘ri ovqatlanish, gigiyena, tibbiy madaniyat, sport bilan shug‘ullanish va boshqalar) asoslarini talaba va o‘quvchi qizlar o‘rtasida manzilli targ‘ib etish maqsadida yakka tartibda tushuntirish ishlari, ochiq muloqot, sayyor qabul va davra suhbatlarini tashkil etish.	<p>1. Tadbirlarni o‘tkazib borish bo‘yicha ishchi guruhni tuzish.</p> <p>2. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tadbirlar rejasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil sentyabr</p> <p>muntazam</p>	Sog‘liqni saqlash vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Kasb-hunar ta’limi markazi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, “Sog‘lom avlod uchun” xalqaro jamoat fondi
3.	Talaba va o‘quvchi qizlarning tadbirkorlik sohasiga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish bo‘yicha tadbirkor, hunarmand ayollar ishtirokida o‘quv-treninglar tashkil etish.	<p>1. Hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzish.</p> <p>2. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda o‘quv-treninglar rejasini ishlab chiqish.</p> <p>3. O‘quv-treninglarni yuqori saviyada o‘tkazish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil sentyabr</p> <p>muntazam</p>	O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Savdo-sanoat palatasi, Markaziy bank

4.	Talaba va o'quvchi qizlarni tadbirkorlikka yo'naltirish hamda ularning boqimandalik kayfiyatiga berilishining oldini olishga qaratilgan ko'rsatuv va eshittirishlarni tashkil etish.	<p>1. Hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhini tuzish.</p> <p>2. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ko'rsatuvlar media-rejasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Ko'rsatuvlarni yuqori saviyada tashkil etish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>muntazam</p>	<p>O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi, "Nuroniylar" jamg'armasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi</p>
5.	"Buyuklarni tarbiyalagan onajonlar" ruknida atoqli olimlar, taniqli arboblarning oilasi, avvalo, ularni tarbiyalagan onalar haqida turkum maqolalar va ko'rsatuvlar tashkil etish. "Farzandlar tarbiyasida kitobning o'rni" mavzusiga oid maqolalarni muntazam ravishda tayyorlash va chop etib borish.	<p>1. Hamkor tashkilotlar vakillaridan iborat ishchi guruhi tuzish.</p> <p>2. Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ish rejasini ishlab chiqish.</p> <p>3. Maqolalarni tayyorlash va chop etib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>muntazam</p>	<p>O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi</p>
6.	Talabalarning ijtimoiy-psixologik holatini yanada yaxshilash maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida mutaxassislardan iborat Sotsiologik va pedagogik-psixologik xizmat guruhini tashkil etib, ta'lim muassasasi rahbariga mazkur guruh a'zolarini har oyda belgilangan tartib asosida moddiy rag'batlantirib borish vakolatini berish.	<p>1. Belgilangan tartibda har bir oliy ta'lim muassasasida mutaxassislardan iborat Sotsiologik va pedagogik-psixologik xizmat guruhini tashkil etish.</p> <p>2. Sotsiologik va pedagogik-psixologik xizmat guruhi faoliyatini monitoring qilib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>muntazam</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, manfaatdor vazirliklar va idoralar</p>
7.	Talaba va o'quvchi qizlarga shart-sharoitlar yaratish, ularga bo'lgan yuksak e'tibor sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-	<p>1. Talaba va o'quvchi qizlarga shart-sharoitlar yaratish bo'yicha tadbirlar o'tkazadigan ijodiy guruh tuzish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p>	<p>O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi</p>

	quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son Farmonining mazmun-mohiyati haqida davra suhbatlarini tashkil etish.	2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son Farmonining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo‘yicha tadbirlarni o‘tkazish reja-jadvalini tasdiqlash. 3. Reja-jadval asosida tadbirlarni tashkil etish.	muntazam	
8.	Talabalar turar joylarida ta‘lim muassasasining ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, talabalar uchun barcha sharoit va imkoniyatlarga ega bo‘lgan hunarmandchilik va ilm-fanga doir to‘garaklar hamda o‘quv kurslari tashkil etish.	1. Har bir talabalar turar joyidagi to‘garak yoki o‘quv kursi uchun mos bo‘lgan joylarni aniqlab, ro‘yxatini shakllantirish. 2. Talabalar turar joylarida hunarmandchilik va ilm-fanga doir to‘garaklar hamda o‘quv kurslarini tashkil etish.	2018-yil sentyabr 2018-yil noyabr	Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, manfaatdor vazirliklar va idoralar
9.	Ta‘lim muassasalarida “Prezident asarlari bilimdoni”, “Tafakkur sinovlari”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Talabalar teatr studiyalari”, “Yosh kitobxonlar”, “Yagonasan, muqaddas Vatan!” kabi respublika miqyosida o‘tkazilayotgan tanlovlar hamda sport musobaqalarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida ularni oliy ta‘lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.	1. Oliy ta‘lim muassasalarining yillik xarajatlar smetasiga o‘tkazilayotgan tanlovlar hamda sport musobaqalarini oliy ta‘lim muassasalarining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish bandini kiritish. 2. Tanlovlar hamda sport musobaqalarining har bir oliy ta‘lim muassasasida yuqori saviyada tashkil etilishini ta‘minlash. 3. O‘tkazilgan tadbirlar natijasini monitoring qilish.	har yili alohida reja asosida muntazam	Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi

10.	<p>Ta'lim muassasalari o'rtasida respublika miqyosida tashkil etilayotgan sport musobaqalari sonini yanada oshirish, musobaqalar o'tkaziladigan sport turlarini kengaytirish, ta'lim muassasalari o'rtasida sport turlari bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvlari o'tkazib borilishini yo'lga qo'yish.</p>	<p>1. Ta'lim muassasalarida tashkil etilayotgan sport musobaqalari turlarini qayta ko'rib chiqish.</p> <p>2. Ta'lim muassasalari o'rtasida respublika miqyosida tashkil etilayotgan sport musobaqalari sonini yanada oshirish va musobaqa o'tkaziladigan sport turlarini kengaytirish choralarini belgilash.</p> <p>3. Ta'lim muassasalari o'rtasida sport turlari bo'yicha o'rtoqlik uchrashuvlari rejasini ishlab chiqish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>muntazam</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar</p>
11.	<p>Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalaridagi to'garaklarni to'liq xatlovdan o'tkazish va barcha to'garaklarning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash maqsadida to'garak rahbarlarini moddiy qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.</p>	<p>1. To'garak rahbarlariga ish haqi miqdorining 25 foizigacha bo'lgan miqdorda ustama haq belgilash bo'yicha namunaviy tartib ishlab chiqish.</p> <p>2. Talaba va o'quvchilarni o'z qiziqishidan kelib chiqqan holda to'garaklarga keng qamrab olinishini ta'minlash.</p> <p>3. Talabalar tomonidan to'garaklar davomida yaratilgan mahsulotlar realizatsiyasini va ko'rgazmalarini yo'lga qo'yish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>muntazam</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar</p>
12.	<p>Talabalar turar joyidagi tarbiyachi-pedagoglarning pedagogik mahorati va yoshlar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar bo'yicha malakasini oshirish</p>	<p>1. Tarbiyachi-pedagoglarning malakasini oshirish yuzasidan taklif ishlab chiqish bo'yicha ishchi guruh tuzish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar</p>

	choralarini ko'rish hamda ular uchun sayyor seminar-treninglar o'tkazib borish mexanizmini joriy etish.	<p>2. Tarbiyachi-pedagoglarning malakasini oshirish va ular uchun seminar-treninglar o'tkazib borish bo'yicha taklif ishlab chiqish.</p> <p>3. Ishlab chiqilgan taklif asosida tarbiyachi-pedagoglarning malakasini oshirish mexanizmini joriy qilish.</p>	noyabr	qo'mitasi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar
13.	Talabalarda kitobxonlik va mutolaa madaniyatini yuksaltirish maqsadida guruhlar, fakultetlar va ta'lim muassasalararo (onlayn, videokonferensiya tarzida) adabiy uchrashuvlar, she'riyat kechalari, adabiy o'qishlar, navoiyxonlik, boburxonlik kabi tadbirlarni tashkil etish.	<p>1. Tadbirlarning manzilli rejasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tadbirlarni o'z vaqtida tashkil etib borish.</p> <p>3. O'tkazilayotgan tadbirlarning monitoringini yuritish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>reja asosida</p> <p>har chorakda</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar
14.	Har bir ta'lim muassasasida notiqlik mahoratiga ega bo'lgan talaba (yoki o'quvchi)lardan iborat "Yosh targ'ibotchilar klubi"ni hamda "IQ-SNOU" nomli teletanlovni tashkil etish.	<p>1. Klubning namunaviy nizomini ishlab chiqish.</p> <p>2. Klublarning ta'lim muassasalararo safarlarini uyushtirish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>reja asosida</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, tasarrufida oliy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar
15.	Talaba va o'quvchilarni yangi axborotlar bilan muntazam ta'minlab borish maqsadida talabalar turar joylaridagi Axborot-resurs markazida mavjud kitoblar bilan ta'minlangan xona va Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan (ma'lumotlar bazasiga ulangan) xonani tashkil etish.	<p>1. Axborot-resurs markazida mavjud kitoblar bilan ta'minlangan xona va Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan (ma'lumotlar bazasiga ulangan) xonaga ega bo'lmagan talabalar turar joylari ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>2. Talabalar turar joylaridagi Axborot-resurs markazida mavjud kitoblar bilan</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>muntazam</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar

		<p>ta'minlangan xona va Internet jahon axborot tarmog'iga ulangan (ma'lumotlar bazasiga ulangan) xonani tashkil etish.</p> <p>3. Xonalardan foydalanish bo'yicha doimiy nazorat olib borish.</p>		
16.	<p>Talaba va o'quvchilar o'rtasida diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik g'oyalarni keng targ'ib qilish maqsadida tizimli ravishda diniy ulamolar bilan uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uyushtirish.</p>	<p>1. Tadbirlarning manzilli rejasini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tadbirlarni o'z vaqtida tashkil etib borish.</p> <p>3. O'tkazilayotgan tadbirlarning monitoringini yuritish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>reja asosida</p> <p>muntazam</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
17.	<p>Mutaxassislarni jalb etgan holda, talaba (o'quvchi)lar o'rtasida badiiy jamoalar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularning o'zlari tahsil olayotgan oliy ta'lim muassasasi hamda yaqin hududlardagi mahallalarda badiiy-ijodiy chiqishlarini tashkil etib borish.</p>	<p>1. Badiiy jamoalar faoliyatini yo'lga qo'yish.</p> <p>2. Badiiy jamoalarning badiiy-ijodiy chiqishi bo'yicha manzilli reja ishlab chiqish.</p> <p>3. O'tkazilayotgan badiiy-ijodiy chiqishlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil davomida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar</p>
18.	<p>Talaba va o'quvchilar ishtirokida respublika ommaviy axborot vositalarida talabalar va o'quvchilarning chiqishlari bo'yicha tanlovlar e'lon qilish.</p>	<p>1. Tanlovlar nizomini ishlab chiqish.</p> <p>2. Tanlovlar dasturini ishlab chiqish.</p> <p>3. O'tkazilayotgan tanlovlarning monitoringini yuritish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil davomida</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>

19.	Talabalarning ma'naviyat, tarix, san'at sohasida hamda milliy qadriyatlar va an'analar, madaniy merosimiz to'g'risidagi bilimlarini boyitish, ularda milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini yuksaltirish, ularni tarixiy-ma'naviy merosimiz, urf-odat va an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash choralari yanada kuchaytirish hamda natijadorligini ta'minlash.	<p>1. Mazkur masala bo'yicha dastur ishlab chiqish.</p> <p>2. Dastur asosida tadbirlar o'tkazishni yo'lga qo'yish.</p> <p>3. "Vatanim — mening baxtim" shiori ostida boy tarixiy-ma'naviy merosimiz, urf-odat va an'analarimizni targ'ib etish.</p>	<p>2018-yil noyabr</p> <p>reja asosida</p> <p>2018/2019 o'quv yili davomida</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy ta'lim muassasasi bo'lgan vazirliklar va idoralar, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, oliy ta'lim muassasalari rektorlari
20.	"O'quv dargohimizni yuksak ma'naviyat va ma'rifat maskaniga aylantiramiz" mavzusida ijtimoiy aksiyalar tashkil etish.	<p>1. Ijtimoiy aksiyalar o'tkazishning namunaviy dasturini ishlab chiqish.</p> <p>2. Har bir ta'lim muassasasida dastur asosida ijtimoiy aksiyalar o'tkazish.</p> <p>3. Ijtimoiy aksiyalar yakuni bo'yicha respublika forumini o'tkazish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr — noyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar, manfaatdor vazirliklar va idoralar
21.	Oliy ta'lim muassasalarining Talabalar teatr studiyasi va "Quvnoqlar va zukkolar" jamoalarining hududdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'ylab maxsus reja-jadval asosidagi ijodiy safarlarini tashkil etish.	<p>1. Ijodiy safarlarning reja-jadvalini ishlab chiqish.</p> <p>2. Har bir ta'lim muassasasida reja-jadval asosida ijodiy safarlar uyushtirish.</p> <p>3. O'tkazilayotgan ijodiy safarlar monitoringini olib borish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>reja-jadval asosida</p> <p>muntazam</p>	Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Kasb-hunar ta'limi markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi
22.	Talaba va o'quvchi qizlar o'rtasida "Qiz bola — bo'lg'usi oila bekasi" mavzusida davra suhbatlari tashkil etish.	<p>1. Mazkur masala bo'yicha dastur ishlab chiqish.</p> <p>2. Dastur asosida mutaxassis</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p>	Xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi,

		<p>targ'ibotchilar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Har bir ta'lim muassasasida uchrashuv, davra suhbat va seminar-treninglar tashkil etish.</p>	<p>2018-yil sentyabr — dekabr</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi</p>
23.	<p>“Talaba yoshlar ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etish.</p>	<p>1. Konferensiyaning o'tkazish bo'yicha ishchi guruhni tashkil etish.</p> <p>2. Konferensiyaning e'lon qilish va uning axborot xatini tarqatish.</p> <p>3. Konferensiya maqolalarini yig'ib olish.</p> <p>4. Konferensiyaning o'tkazish.</p> <p>5. Konferensiya materiallari asosida xulosa takliflari tayyorlash.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>2018-yil sentyabr — oktyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p> <p>2018-yil noyabr</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, tasarrufida oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bo'lgan vazirliklar va idoralar, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
24.	<p>Talabalar va o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga doir ishlar tizimini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun e'lon qilingan grant tanlovlari natijasiga ko'ra ilmiy grantlar ajratish choralarini ko'rish.</p>	<p>1. Ilmiy grantlar mavzularini aniqlash bo'yicha ekspert komissiyasini tuzish.</p> <p>2. Ilmiy grantlar mavzularini e'lon qilish.</p> <p>3. Grantlarda e'lon qilingan mavzular bo'yicha tadqiqotlar natijalarini amaliyotga tatbiq etish choralarini ko'rish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil oktyabr</p> <p>belgilangan muddatlarda</p>	<p>Innovatsion rivojlanish vazirligi, Fanlar akademiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, manfaatdor vazirlik va idoralar</p>
25.	<p>Taniqli va yuqori ilmiy salohiyatga ega akademik va professor-o'qituvchilarning onlayn tarzda videodarslarini</p>	<p>1. Mazkur masala bo'yicha reja-jadval ishlab chiqish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil sentyabr</p>	<p>Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi,</p>

	tashkil etish tizimini joriy qilish.	<p>2. Reja-jadval asosida akademik va professor-o'qituvchilar ro'yxatini shakllantirish va dars jadvalini ishlab chiqish.</p> <p>3. Har bir yo'nalish bo'yicha akademik va professor-o'qituvchilarning onlayn videodarslarini o'tkazib borish.</p>	tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq	Fanlar akademiyasi, manfaatdor vazirlik va idoralar
26.	Ta'lim muassasalarida "Oila — ma'naviyat qo'rg'oni", "Shukronalik — ulug' ne'mat", "Obodlik ko'ngildan boshlanadi" mavzularida mutaxassislar ishtirokidagi uchrashuv, davra suhbat va seminar-treninglar tashkil etish.	<p>1. Mazkur masala bo'yicha dastur ishlab chiqish.</p> <p>2. Dastur asosida mutaxassis targ'ibotchilar ro'yxatini shakllantirish.</p> <p>3. Har bir ta'lim muassasasida uchrashuv, davra suhbat va seminar-treninglar tashkil etish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil avgust — dekabr</p>	O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi
27	Talabalar va o'quvchilarda shukronalik hissini yanada kuchaytirishga qaratilgan "Ezgu ishlarga daxldorlik — ulug' fazilat", "Loqaydlik — jamiyat kushandasi" mavzusida ilmiy-ijodiy tanlovlarni tashkil etish.	<p>1. Tanlovlarni nizomini ishlab chiqish.</p> <p>2. Nizom asosida tanlovlarni yuqori saviyada tashkil etish.</p>	<p>2018-yil sentyabr</p> <p>2018-yil sentyabr — dekabr</p>	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi

(2-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 19-iyundagi 391-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son qaroriga
3-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi "Ma'naviyat va ma'rifat" markazi xodimlarining mehnatiga haq to'lash

RAZRYADLARI

T/r	Lavozimlar nomi	Mehnatga haq to'lash razryadlari
1.	Direktor	*
2.	Tashkiliy, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy masalalar bo'yicha direktor o'rinbosari	**
3.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish, madaniy dam olishni tashkil etish va jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha direktor o'rinbosari	**
4.	Bo'lim boshlig'i	16
5.	Psixolog	15
6.	Uslubchi	14
7.	Bosh buxgalter	14
8.	Bosh yuriskonsult	12
9.	Jurnalist-muharrir	12
10.	Bosh dasturlovchi	12
11.	Tarjimon	12
12.	Bosh ijtimoiy xodim	12
13.	Axborot xavfsizligi bo'yicha bosh mutaxassis	12
14.	Video-foto tasvir bo'yicha bosh mutaxassis	12
15.	Video montaj bo'yicha bosh mutaxassis	12
16.	Audio montaj bo'yicha bosh mutaxassis	12
17.	Veb-dizayner	12
18.	Texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi mudiri	10
19.	Iqtisodchi	8
20.	Devonxona va arxiv bo'limi mudiri	7
21.	Kadrlar bo'yicha inspektor	6
22.	Arxivarius	4
23.	G'aznachi	4

* mos ravishda oliy ta'lim muassasasining fakultet dekani bazaviy lavozim maoshiga tenglashtiriladi;

** mos ravishda oliy ta'lim muassasasining fakultet dekani o'rinbosari bazaviy lavozim maoshiga tenglashtiriladi;

Markazning xo'jalik va xizmat ko'rsatuvchi xodimlari soni va ularning mehnatiga haq to'lash miqdorlari — oliy ta'lim muassasalari uchun belgilangan normativlar va mehnatga haq to'lash miqdoriga mos ravishda belgilanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son qaroriga

4-ILOVA

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzurida “Ma’naviyat va ma’rifat” markazini tashkil etish to‘g‘risida” 2011-yil 12-yanvardagi 11-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirishlar

1. 2 va 3-bandlar o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

2. 7-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2018-yilda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida “Ijtimoiy soha” uchun nazarda tutilgan mablag‘lar doirasida Markazni saqlash va uning faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag‘lar ajratsin, 2019-yildan boshlab esa har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan “Maorif” sohasiga ajratiladigan xarajatlar parametrlarida nazarda tutsin”.

3. 1-ilova o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.09.2018-y., 09/18/736/1886-son; 19.06.2020-y., 09/20/391/0777-son)